

**TAOMLAR TAYYORLASH TEXNOLOGIYASI BO'LIMINI
KOMPYUTER DASTURLARIDAN FOYDALANIB O'QITISH
METODIKASI**

Shukrulloyeva Eliza Shahrulloyevna

BuxDPI “Texnologik ta’lim” yo‘nalishi talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada taom tayyorlash texnologiyasini multimedia vositalari orqali tushuntirish shuningdek, o‘quvchilarning tez va oson eslab qolishlariga zamin yaratish. Taom tayyorlash texnologiyasini multimedia vositalari orqali tushuntirish o‘quvchilarning har tomonlama xulosa chiqarishlari va taom tayyorlash texnologiyasini puxta o‘rganishlari bayon etilgan .

Tayanch so‘zlar: mediata’lim, muloqot, taom tayyorlash, bilim, ko‘nikma, malaka, texnologiya, o‘qitish, samaradorlik

Bugungi kunda ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarning o‘rni tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlarida kompyuter dasturlaridan foydalanish o‘quvchilarning kasbiy ko‘nikmalarini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. “Taomlar tayyorlash texnologiyasi” bo‘limida ham interaktiv metodlar, simulyatsiya dasturlari va multimediali resurslardan foydalanish orqali ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida axbarot texnologiyalari orqali samarali darslarni tashkil etish, multimedia vositalarini maktablarda joriy etishni kuchaytirish bo‘yicha aniq vazifalarni amalga oshirish belgilab qo‘yilgan.

O‘quv jarayonida quyidagi turdagи dasturlardan foydalanish maqsadga muvofiq:

1.Prezentatsion dasturlar: PowerPoint, Canva — nazariy bilimlarni vizual tarzda taqdim etish;

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

2.Multimedia ilovalari: YouTube, Khan Academy, yoki maxsus tayyorlangan o‘zbek tilidagi videodarslar;

3.Simulyatorlar: Virtual oshxona muhitini yaratuvchi dasturlar (masalan, "Virtual Chef", "Cook Simulator" o‘ynli platformalar);

4.O‘rgatuvchi test dasturlari: Quizizz, Kahoot, Google Forms – bilim nazoratini interaktiv tarzda olib borish;

5.Retsept va menu tuzish dasturlari: Excel, DietMaster, Menu Planner.

Taom tayyorlash texnologiyasi bo‘limini o‘qitishda media ta’lim vositalaridan foydalanib o‘qitish muhim rol o‘ynaydi. Axborot oqimidan to‘g‘ri foydalanib, bo‘limning rivojlanishi uchun kerakli bo‘lgan axborotlar to’planadi. Mediata’lim asosida o‘quvchilar o‘zining o‘qish jarayonida internet, televideniya manbalaridan foydalanishadi. Taom tayyorlash texnologiyasini multimedia vositalari bilan tushuntirish orqali o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini oshirishga yordam beradi. Multimedia vositalari orqali tushuntirish o‘quvchilarning tez esda saqlab qolishiga va shu orqali o‘zlariga ko‘nikma hosil qilishlari mumkin.

Taom tayyorlash texnologiyasi bo‘limini o‘qitishda media vositalarini qo‘llash pedagogik va psixologik nuqtai nazardan juda katta ahamiyatga ega. Taom tayyorlash texnologiyasi bo‘limi bo‘yicha beriladigan material chuqurroq o‘zlashtiriladi, vaqt ni tejash imkoniyatiga erishiladi, olingan ma’lumot kishi xotirasida uzoq vaqt saqlanadi, izlanuvchanlik va bilish faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan multimedia dasturlari tadbiq etiladi, ta’lim jarayoniga badiiylik kiritiladi. Ta’lim sohasidagi barcha islohotlarning asosiy maqsadi ma’naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonlarni tarbiyalash, ta’lim tizimini takomillashtirish, dars jarayonlarini yangi pedagogik va axborot texnologiyalari asosida har tomonlama zamon talabiga mos ravishda amalga oshirilmoqda.

Taom tayyorlash bo‘limi o‘quvchilarga o‘z kasbining mohir ustasi qilib tarbiyalash, ularga taom tayyorlash texnologiyasi, pazandachilik haqida ma’lumot berish, oziq-ovqat mahsulotlarining turlarining turlari, navlari sifatiga bo‘lgan talablar, oziq-ovqat mahulotlarini saqlashga qo’yiladigan sanitar - gigeyena talablarini, tayyorlangan taomning taomnomasini tuzish, taomlarni qanday rejimda

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

qanday me'yorda istemol qilish, kasallik turlariga ko'ra davolovchi taomlar bo'yicha bilim, malaka, ko'nikmalarni hosil qiladi. Ayniqsa, bugungi kunda talabalarga pazandachilikka oid ma'lumotlarni, mahsulotlarga birlamchi ishlov berishni, taomlar tayyorlash jarayonini, tayyorlangan taomlarni dasturxonga tortish tartibini media ta'lim vositalari asosida yetkazib berilmoqda.

O'qituvchi taom tayyorlash texnologiyasini o'qitishda mediata'lim vositalarini qo'llab axborotlarni taqdim etadi, ta'lim oluvchilarga ko'maklashadi, qo'llab-quvvatlash va jarayonni boshqarib borib, shug'ullanadi va mazmunan boyitadi. Dars jarayonida chiroylar tasvirlar yoki animatsiyalar bilan boyitilgan taqdimotlar oddiy ko'rinishdagi matnlarga qaraganda ancha jozibali chiqadi va ular taqdim etilayotgan materiallarni to'ldirgan holda zaruriy emotsiyal darajani ta'minlaydi. Dars jarayoni qiziqarli bo'lib, samaradorlik oshadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

S.I. Baxtiyorova, X.Y. Hamroyeva. "Methods of Teaching Materials Science on the Basis of Innovative Educational Technologies". Journal of Pedagogical Inventions and Practices. Peer Reviewed International Journal. 2022. Amerika. 133-136 pg.
<https://zienjournals.com/index.php/jpip/article/view/1309>

1. Sobira Ixtiyor qizi Baxtiyorova, Dilorom Bafo qizi Jo'rayeva. [5 SINF TEXNOLOGIYA DARSLARIDA "MATERIALLARGA ISHLOV BERISH BO'LIMI" NI INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH.](#) - GOLDEN BRAIN, 2023. 73-79. <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/5457>
2. Sobiraxon Ixtiyor qizi Baxtiyorova, Ziyoda Omonboy qizi Ganjayeva. [TEXNOLOGIK TA'LIMDA XALQARO BAHOLASH TIZIMINI JORIY ETISH METODIKASI.](#) - GOLDEN BRAIN, 2023. 67-72. <file:///C:/Users/Admin/Downloads/67-72.pdf> Собирахон Ихтиёровна Бахтиёрова. [ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПРОГРАММНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ В ПРЕПОДАВАНИИ МАТЕРИАЛОВЕДЕНИЯ.](#) Наука, техника и образование, 2021. 80-83. <https://cyberleninka.ru/article/n/ispolzovanie-programmnogo-obespecheniya-v-prepodavanii-materialovedeniya/viewer>